

## XORAZM VILOYATIDA MADANIYAT

*Kundalik hayotda "madaniyat" so'zidan insonning faoliyat tarzini va jamiyatning qay darajada rivojlanganligini aniqlovchi ko'rsatkich sifatida foydalanilgandek tuyuladi. Lekin madaniyat so'zining mazmun-mohiyatiga chuqurroq e'tibor beradigan bo'lsak, bu atama tabiat, jamiyat va insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni belgilab beruvchi ko'plab qarashlar, nazariyalar va g'oyalarga, tushuncha va tasavvurlarga nisbatan qo'llanilishini ham anglab yetamiz.*

*Madaniyat ajdodlar tafakkuri, bilimlari, ijodi va atrof muhitga bo'lgan munosabatining mahsuli bo'lib, minglab yillar davomida yaratilgan tajribalarni o'ziga singdirib, takomillashib borgan. Madaniyat rivojlanishi bilan millat va uning ma'naviy qiyofasi ham shakllangan.*

*Mustaqillik aynan shunday ezgu ishlarni amalga oshirishga, madaniy rivojlanishga imkoniyat yaratib bermoqda. Respublikamizda amalga oshirilayotgan madaniy islohotlarning barchasi inson kelajagiga, ma'naviy kamolotiga xizmat qiladi. Aynan madaniyat insoniyat taraqqiyotini ta'minlovchi bosh omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.*



*Aholi xususan, yoshlarning madaniy saviyasini yuksaltirish, ularni milliy va umumbashariy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan bahramand etish, shu asosda ma'naviy yetuk, barkamol shaxslarni tarbiyalash, yosh iste'dod egalarining qobiliyati va salohiyatini ro'yobga chiqarish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.*

## Kutubxona faoliyati



Keyingi yillarda yurtimizda kitobxonlikka juda katta e'tibor berilmoqda, jumladan 2019 yil 7-iyundagi PK-4354 sonli kutubxona markazlarini tashkil qilish to'g'risidagi prezident qarori bunga yaqqol misol bo'ladi. Bu qarorga ko'ra respublikamizdagi umta'lim maktablari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari qoshida faoliyat ko'rsatayotgan barcha axborot-resurslarini tugatish.

Umta'lim maktablari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining tugatilayotgan axborot-resurs markazlarining kitob fondlari va shtat birliklarini yangidan tashkil qilinayotgan tuman (shahar) axborot-kutubxona markazlariga berish.

Loyihalarni amalga oshirish mamlakat axborot-kutubxona muassasalarining yanada rivojlanishi hamda axborot, madaniy-marifiy makon doirasida ularni muofiqlashtirishga xizmat qiluvchi yagona axborot-kutubxona tarmog'ini yaratishga imkon beradi.




## Kutubxona muassasalari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

	2018 - yil	2019 - yil
Muassasalar soni, birlik	166	22
Kutubxona fondi, ming nusxa	4864,3	2890,2
Foydalanuvchilar soni, ming kishi	391,0	192,0
Foydalanishga berilgan kitob va jurnallar, ming nusxa	6100,0	2189,1
O'rtacha bitta kutubxonaga kitob va jurnallar soni, nusxa	29302,8	131372,0
O'rtacha bitta foydalanuvchiga kitob va jurnallar soni, nusxa	12,4	15,1
O'rtacha bitta kutubxonaga foydalanuvchilar soni, kishi	2355,6	8727,0
O'rtacha bitta foydalanuvchiga berilgan kitob va jurnallar soni, bilik	15,6	11,4

## Kutubxona muassasalarini hududlar kesimida asosiy ko'rsatkichlari

2020 - yil 1 - yanvar holatiga Xorazm viloyatida 22 ta kutubxona bo'lib ulardagi kitob va jurnallar soni 2890,2 ming nusxa, foydalanuvchilar soni 192,0 ming kishi, berilgan kitob va jurnallar soni 2189,1 ming nusxani tashkil qiladi.

Bu ko'rsatkichlar 2019-yilning 1-yanvar holatiga kutubxonalar soni 166 ta, kitob va jurnallar soni 4864,3 ming nusxa, foydalanuvchilar soni 391,0 ming, berilgan kitob va jurnallar soni 6100,0 ming nusxani tashkil qilgan.




2020 - yil 1 - yanvar holatiga kutubxona muassasalari 22 tani tashkil etadi: ulardan axborot-kutubxona markazlari 12 ta akademik litseylarda 1 ta, kasb-hunar kollejlarida 2 ta, oliy ta'lim muassasalarida 3 ta, boshqa tashkilot va muassasalarda 2 ta, ko'zi ojizlar uchun kutubxonalar 1 ta va boshqa kutubxonalar 1 ta.

## Turlari bo'yicha kutubxona muassasalari foydalanuvchilari va kitob jurnallar soni




Foydalanuvchilar soni, ming kishi




Kitob va jurnallar soni, ming nusxa


## Tillar bo'yicha kutubxona muassasalari kitob fondi, ming nusxa




Turlari bo'yicha kutubxona muassasalari kitob fondi, ming nusxa



Kutubxona muassasalari kitob fondlari harakati, ming nusxa



Kutubxona muassasalari tomonidan 18 yoshgacha bolalarga berilgan kitob va jurnallar, ming nusxa



## Kutubxona muassasalari xodimlari soni

2020 - yil 1 - yanvar holatiga kutubxona muassasalari jami xodimlari soni 447 nafar kishini ulardan 366 nafarini ayollar tashkil qiladi. 158 nafar oliy va 284 nafar o'rta-maxsus ma'lumotga ega.

O'tgan yilning shu davrida jami xodimlar soni 684 nafarni ulardan 619 nafarini ayollar tashkil qilgan. 212 nafar oliy va 439 nafar o'rta-maxsus ma'lumotiga ega bo'lgan.

## Hududlar kesimida kutubxona muassasalari xodimlari, kishi

	Jami xodimlar	Shundan: ayollar	Oliy ma'lumotli	O'rta-maxsus
Urganch sh.	223	167	84	13
Xiva sh.	20	18	7	13
Bog'ot	22	20	7	15
Gurlan	19	18	6	13
Qo'shko'pir	21	20	2	19
Urganch	21	19	6	15
Hazorasp	21	17	6	15
Xonqa	19	18	9	10
Xiva	19	14	7	12
Shovot	23	21	10	13
Yangariq	21	19	6	15
Yangibozor	18	15	8	7

## Kutubxona xodimlarini jinsi bo'yicha taqsimlanishi, % da



81,9% Ayollar




18,1% Erkaklar


## XORAZM VILOYATIDA MUZEYLAR

Xorazm viloyatida 2019 - yilda muzeylar soni 3 tani tashkil qildi, muzeyga tashrif buyuruvchilar 1148,3 ming kishini tashkil etdi.

2018 - yilda muzeylar soni 3 tani tashkil etgan, muzeyga tashrif buyuruvchilar 941,9 ming kishini tashkil qilgan.




Muzeylarda turli eksponatlar mavjud. Muzey eksponat fondlari 40069 tani tashkil etadi, shulardan: 41,3% numizmatika, 19,6% boshqalar, 13,7% hujjatlar, 8,2% suratlar, 6,8% amaliy san'at buyumlari, 4,7% maishiy va etnografiya buyumlari, 3,7% arxeologiya buyumlari, 1,3% rassomlik, 0,6% grafika va 0,1% haykaltaroshlik buyumlari.



Xorazm viloyatida 2019 - yilda muzey xodimlari soni 196 nafarni tashkil qildi, ulardan 146 nafarini ayollar tashkil qiladi. Ilmiy xodim va ekskursovodlar 48 nafarni tashkil qildi.


2018 - yilda muzey xodimlari 196 nafar bo'lgan, ulardan 146 nafarini ayollar tashkil qilgan. Ilmiy xodim va ekskursovodlar 48 nafarni tashkil qilgan.



## Xorazm viloyatida teatrlar asosiy ko'rsatkichlari

Xorazm viloyatida 2019 - yilda teatrlar soni 2 tani tashkil qildi. Teatrlarda qo'yilgan spektakllar (tomoshalar) soni 1038 tani, ularga kelgan tomashabinlar soni 208,0 ming kishini tashkil qildi.


2018 - yilda teatrlar soni 2 ta, qo'yilgan spektakllar (tomoshalar) soni 581 tani, ularga kelgan tomashabinlar soni 139,3 ming kishini tashkil qilgan.



## Hududlar kesimida teatr xodimlari soni, kishi

Xorazm viloyatida 2019 - yilda 81 nafar teatr xodimlari bo'lib, ulardan 25 nafari ayollar.

2018 - yilda ham jami 81 nafar xodimlar bo'lib, ulardan 25 nafarini ayollar tashkil qilgan.



## Teatr xodimlarini jinsi bo'yicha taqsimlanishi, % da



2019 - yilda teatr xodimlarini 30,9% ini ayollar tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich 2018 - yilda ham 30,9% ni tashkil qilgan.



## Xorazm viloyatida konsert tashkilotlari asosiy ko'rsatkichlari



Xorazm viloyatida 2019 - yilda konsert tashkiloti 1 tani tashkil qilib, konsertlar soni 134 tani tashkil qildi. Xizmat ko'rsatilgan tinglovchilar soni 66,1 ming kishi.


2018 - yilda konsert tashkiloti 1 tani, konsertlar soni esa 124 tani tashkil qilgan. Xizmat ko'rsatilgan tinglovchilar soni esa 56,0 ming kishi.



## Konsert tashkilotlari xodimlari soni, kishi

2019 - yilda konsert tashkilotida jami ijrochilar soni 46 nafarni tashkil qildi, ulardan 23 nafarini ayol ijrochilar tashkil qiladi.

2018 - yilda konsert tashkilotida jami ijrochilar soni 35 nafarni tashkil qilib, ulardan 22 nafarini ayol ijrochilar tashkil qilagan.




## Madaniyat va istirohat bog'lari asosiy ko'rsatkichlari

2019 - yil viloyatimizda madaniyat va istirohat bog'lari soni 15 tani tashkil etadi. Ulardan 3 tasi Urganch shahrida, 2 tasi Bog'ot va yana 2 tasi Yangariq tumanlarida joylashgan. Xorazm viloyatida joylashgan madaniyat va istirohat bog'lari 208,2 gektarni tashkil qilib, ulardan Urganch shahrida joylashgan madaniyat va istirohat bog'lari 115,8 gektarni, Gurlan tumanida joylashgan madaniyat va istirohat bog'lari 18 gektarni, Qo'shko'pir tumanida joylashgan madaniyat va istirohat bog'lari 17 gektar maydonni egallaydi.

	Madaniyat va istirohat bog'lari soni, birlik	Madaniyat va istirohat bog'lari maydoni, gektar	Dam olish obektlari soni, birlik	Attraksionlar soni, birlik	Jami qatnovlar, ming kishi
Urganch sh.	3	115,8	4	7	48,5
Xiva sh.	1	5	5	-	6,5
Bog'ot	2	7,3	1	9	4,7
Gurlan	1	18,0	8	5	10,8
Qo'shko'pir	1	17,0	-	2	9,2
Urganch	1	3,0	-	1	
Hazorasp	1	13,6	-	-	
Xonqa	1	1,7	9	4	67,0
Xiva	-	-	-	-	-
Shovot	1	8,5	7	8	15,0
Yangariq	2	13	-	1	-
Yangibozor	1	5,3	-	-	-

## Madaniyat va istirohat bog'lari xodimlari soni, kishi



## Madaniyat va aholi dam olish markazlari asosiy ko'rsatkichlari

Viloyatimizda 2019 - yilda 65 madaniyat va aholi dam olish markazlari bo'lib, ulardan 25 tasi namunaviy. Tomosha va ma'ruza zallaridagi o'rinlar soni 16407 tani, to'garak va mashg'ulot xonalari soni 280 tani tashkil etdi.

2018 - yilda madaniyat va aholi dam olish markazlari 65 ta, ulardan 23 tasi namunaviy. Tomosha va ma'ruza zallaridagi o'rinlar soni 14271 tani, to'garak va mashg'ulot xonalari soni 225 tani tashkil qilgan.

	Muassasalarning umumiy soni, birlik	Jami o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlar, birlik	Madaniy-ma'rifiy tadbirlarlarda ishtirok etganlar jami, ming kishi	Jami to'garak, studiya va badiiy havaskorlik jamoalari, birlik	Jami to'garak, studiya va badiiy havaskorlik jamoalari ishtirokchilari, ming kishi
Xorazm viloyati	65	3870	632,4	352	7,1
Urganch sh.	6	312	67,7	31	1,2
Xiva sh.	3	494	41,4	22	0,2
Gurlan	6	333	96,9	28	1
Bog'ot	7	210	37,3	55	0,6
Qo'shko'pir	4	677	52,1	19	0,3
Urganch	5	139	12,1	22	0,3
Hazorasp	8	308	104,7	43	0,7
Xonqa	4	141	22,2	23	0,3
Xiva	4	574	83,3	17	0,2
Shovot	10	344	40,3	41	1,1
Yangariq	5	168	24,7	35	1,1
Yangibozor	3	170	49,7	16	0,2

2019 - yilda madaniyat va aholi dam olish markazlari xodimlari soni 405 nafar ulardan 96 nafarini ayollar tashkil etadi.

2018 - yilda madaniyat va aholi dam olish markazlari xodimlari soni 406 nafar ulardan 86 nafarini ayollar tashkil qilgan.